

AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH YUZASIDAN XORIJ TAJRIBASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11492933>

Xusanov Zikriyo To'lanboy o'g'li

O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari

Akademiyasi kafedra o'qituvchisi

E-mail: xusanov@max.

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxs axborot-psixologik xavfsizligi tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash yuzasidan sohada yetakchi davlatlar tajribalari o'rganish va xayotga tadbiq qilish to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar

Tizim, mamlakat, me'yoriy-huquqiy, tashkiliy-texnik, ma'naviy-psixologik, axborot, xavfsizlik, internet, kommunikatsiya.

Аннотация

В данной статье освещена информация по изучению и внедрению опыта ведущих стран в области с целью определения приоритетов развития личности. система информационной и психологической безопасности.

Ключевые слова

Система, страна, нормативно-правовая, организационно-техническая, духовно-психологическая, информационная, безопасность, интернет, коммуникация.

Abstract

This article provides detailed information on the study and implementation of the experience of leading countries in the field of in order to determine priorities for personal development. information and psychological security system.

Key words

System, country, legal, organizational, technical, spiritual and psychological, information, security, Internet, communication.

“Ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berishi, jamiyatimizdagi bugungi o'zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg'otishi lozim”.

Islom Karimov

Bugungi kunda ko'pchilik mamlakatlarda shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish meyoriy-huquqiy, tashkiliy-texnik va ma'naviy-psixologik tarbiya yo'nalishlarida olib borilmoqda.

Ular shaxs ongini individual va jamoaviy tarzda shakllantirishga shart-sharoitlar yaratishga, shaxsga qaratilgan axborot-psixologik tahdidlarni aniqlash va bartaraf qilishga, shaxsning axborot-psixologik tahdidlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish mexanizmlarining samadorligiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z nutqida axborot texnologiyalari sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yuqori bo'lgan davlatlar Janubiy Koreya (9%), Yaponiya (5,5%), Xitoy (4,7%), Hindiston (4,7%) haqida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, bu ko'rsatkich O'zbekistonda 2,2% ni tashkil qilishini va 176 ta mamlakat ichida O'zbekiston 95-o'rinni egallagani haqida gapirib, sohani rivojlantirish uchun ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish zarurligini ta'kidladi.

O'zbekistonda shaxs axborot-psixologik xavfsizligi tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash yuzasidan sohada yetakchi davlatlar Xitoy Xalq Respublikasi, Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya Federasiyasi, Janubiy Korea va Belarus tajribalari o'rganildi.

Ayni vaqtda, axborot-texnologiyalari rivojlangan davlatlar sirasiga kiruvchi Xitoy Xalq Respublikasi kibermakonda kuchaytirilgan nazorat o'rnatib, virtual maydonda vujudga kelayotgan muammolarni oldini olish uchun mamlakat fuqarolari keng safarbar qilish yo'lidan bormoqda.

Xitoy boshqa davlatlarga nisbatan «xalqaro o'rgimchak to'ri» auditoriyasi a'zolari soni jihatdan yetakchi hisoblanib, mamlakat aholisining 649 mln nafari Internetdan, shulardan 86 foizi mobil internetdan foydalanadi. O'z navbatida Xitoyda ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar soni 257,22 mln kishini tashkil qilayotgan bo'lsa, mobil messenjerlardan foydalanuvchilar miqdori esa 350 mln kishiga yetgan. Ularning asosini 10 dan 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardan intensiv ravishda foydalanish Xitoy jamiyatida virtuallashtirish jarayonini kuchaytirmoqda. Bu holat ayniqsa yoshlar qatlami orasida yanada ko'proq ko'zga tashlanmoqda.

2010-yilda McKinsey & SO jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, Xitoyning 60 ta eng yirik shaharlari aholisining 70% bo'sh vaqtini global tarmoqda o'tkazishi aniqlangan. Shuningdek, xitoylik yoshlar mobil messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarda kun davomida o'rtacha 4 soat vaqtini turli xil videoroliklar, musiqalar yuklab olish va boshqa ko'ngilochar suhbatlarga sarflamoqda. Bu holat Xitoy davlat boshqaruvida Internet tarmog'ida nazoratni kuchaytirishga oid ma'lum tashkiliy-institutsional o'zgartirishlarni kiritishga turtki bo'ldi.

Jumladan, internet foydalanuvchilari uchun quyidagi talablar kiritildi:

- facebook, twitter, You tube va Wikipedia kabi tarmoqlarni blokirovka qilishda “feyrivollar” tizimidan foydalanish;
- o‘zining haqiqiy biografik ma’lumotlari asosida ro‘yxatdan o‘tmagan blog o‘quvchilariga bloxostlar xizmatlarini taqiqlash;
- turli xil taxalluslar ostida qayd etishni taqiqlash;
- bloglarda anonim tartibda qoldirilgan izohlarni noqonuniy harakat sifatida baholash.

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligi tizimini rivojlantirishning AQSh tajribasi. AQShda shaxsga qaratilgan axborot-psixologik tahdidning asosiy manbasi Internet bo‘lib bugungi kunda tarmoqda xarakteri bo‘yicha noqonuniy kontent quyidagicha taqsimlanadi: 78% pornografiya (50% ibolalar, 28% kattalar), 19% bolalarga taaluqli boshqa noqonuniy kontent, 1% irqchilik va ksenofobiya, 0,8% zo‘rligni targ‘ib qiluvchi kontent, 0,7% boshqa noqonuniy kontent (narkotik, terrorizm) 2001-yil sentabr voqealaridan so‘ng axborot-psixologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun nazorat qilish keskinlashdi. “AQSh davlat xavfsizligi strategiyasi”, FQBga umumiy elektron nazorat qilish huquqini berdi.

Qolaversa, Ichki xavfsizlik Milliy strategiyasiga “AQShda Internetning davlat va xususiy sektorlarini himoyalash” bo‘limi kiritilgan bo‘lib, unda global tarmoqda milliy xavfsizlikka qaratilgan axborot tahdidlariga qarshi kurashish zaruriyati belgilab berilgan. Shu bilan birga, uning asosida axborot tizimlarini himoyalash Milliy Dasturi ham qabul qilindi.

AQSh milliy tadqiqotlar kengashi (National Research Council) ma’lumotiga ko‘ra, davlatlar Internetni noqonuniy kontentda himoyalashda ikki xil usuldan foydalanmoqda:

- davlat darajasida (provayderlar orqali) cheklovlar joriy qilish;
- alohida foydalanuvchilar yoki tashkilotlar darajasida maxsus filtrlash dasturlarini o‘rnatish.

Yuqoridagi usullar mamlakat hukumati tomonidan davlat darajasida (Industriya sub’ektlari va davlat tashkilotlarining vakolatlari asosida), provayder darajasida, foydalanuvchi darajasida filtrlash orqali amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, sohaning meyoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi qonun doirasida “Kommunikatsiyalarda axloqiylik akti” (Communications Decency Act - CDA), “Internetda bolalarni himoyalash akti” (Children online protection act - COPA) “Tarmoqda odobsizlikdan himoyalash akti” (Deleting Online Protection Act) qabul

qilindi. U maktab va kutubnonalarga filtrlash dasturlarini oʻrnatish orqali zararli kontentdan himoyalani choralari belgilab beradi.

Shuningdek, AQSh turli axborotlardan foydalanish uchun yosh bilan bogʻliq cheklovlar oʻrnatilgan. Xususan, Wi-Fi tarmoq operatorlariga ulanuvchilar yoshini tekshirish majburiyati, kattalar uchun moʻljallangan kinolarga, multfilmlarga, kompyuter oʻyinlariga va baʼzi adabiyotlarga ham yosh cheklovi quyilgan.

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligi tizimini rivojlanti-rishning Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribasi. Yevropa Ittifoqi davlatlari tomonidan soʻngi yillarda axborot-psixologik xavfsizlikka ittofoq doirasida kattae'tibor berilib, asosiy axborot-psixologik tahdidlar Internet orqali boʻlganligi sababli ushbu yoʻnalishning me'yoriy-huquqiy ta'minotini rivojlantirmoqda.

Xususan, kiberjinoyatchilik haqida Yevropa konventsiyasi, "Internet xavfsizligi" boʻyicha Yel dasturi (Safer Internet Programme), Uyinlarning yosh boʻyicha tasniflash umumevropa tizimi "PEGI" (Pan-European Game Information age rating system), Bolalar va oʻsmirlarning mobil vositalardan xavfsiz foydalanishining Yevropaga oid qoidalari (European Framework for Safer Mobile Use by Young Teenagers and Children); hamda Yelda ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish tamoyillari (Safer Social Networking Principles for the EU) ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, ushbu qonunlarning amaliyotda ijrosini ta'minlash bir qancha tashkiliy tuzilmalar: Tarmoq va axborot xavfsizligi agentligining muassasalari (ENISA), Internet xavfsizligi markazining tarkibida xabardor qilish markazi (awareness centers) va uning tarkibidagi yordam kursatish tarmogʻi (helplines), shoshilinch aloqa kanali (hotlines) yaratildi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida shaxsni ma'naviy-psixologik shakllanishida internetdan foydalanish madaniyatini yoshlarga oʻrgatish, ularning axborot-psixologik immunitetini oshirish, axborot bilan ishlash koʻnikmalarni shakllantirish maqsadida internet xavfsizligi boʻyicha markaz tashkil etilgan.

Bu markaz barcha tarbiyachilar, oʻqituvchilar, ota-onalar va bolalarni internet tarmogʻidagi noqonuniy va zararli kontent xaqida, shuningdek, ularning bolalar ongiga taʼsiri borasida doimiy xabardor qilib, Internet kontentini maxsus filtrlash dasturlari orqali tozalab boradi.

Fransiyada axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslarining oʻziga xosligi shundaki, axborot sohasini tartibga solishda alohida qonunlar emas, balki jinoyat, mehnat va fuqarolik kodekslaridan foydalaniladi. Shunday boʻlsada, mazkur sohani nazorat qiluvchi bir qator huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini koʻrishimiz mumkin.

Jumladan, 1971-yilda Frantsiya Milliy axborot dasturi (Plan Calcul) qabul qilingan bo'lib, unda kompyuter va telekommunikatsiyalarni rivojlantirish hamda uni jamiyatning barcha sohalariga tatbiq etish rejalari belgilab olingan.

Soha bo'yicha keyingi ishlab chiqilgan chora - tadbirlar unda belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan.

Axborot xavfsizligi sohasiga qaratilgan yangi tahdid va xavflarning kuchayib borishi sababli shaxs, jamiyat hamda davlat manfaatlariga shuningdek, iqtisodiyotga zarar yetkazayotgan tahdidlarni bartaraf etish maqsadida 2011-yilda "Axborot xavfsizligini himoya qilish" Strategiyasi ishlab chiqildi.

Mazkur strategiyada kiberterrorizm va boshqa axborot-psixologik tahdidlarga asosiy e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, axborot xavfsizligi masalalari bo'yicha barcha tashkiliy tuzilma va markazlar hamda kompaniyalar faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi organ "Xavfsiz axborot tizimi milliy agentligi" faoliyat ko'rsatib, u o'z navbatida axborot-psixologik xavfsizlikning texnik ta'minotini bilan shug'ullanadi.

Shu bilan birga, agentlik axborot tizimi va uning xavfsizligi sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan xalkaro muzokaralarda ishtirok etish va professional kadrlar tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

Fransiyada axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihati ushbu sohaga politsiyaning jalb qilinganligidir.

Fransiya politsiyasiga ichki tartibni ta'minlashdan tashqari axborot xavfsizligini ta'minlash vazifasi ham yuklatilgan bo'lib, uning barcha mintaqaviy bo'limlarida axborot texnologiyalari bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'linmalari faoliyat olib boradi.

Bundan tashqari, Fransiyada davlat tomonidan markazlashtirilgan filtrlash tizimi joriy etilgan bo'lib, uning maqsadi bolalarni irqchilikka oid va neofashistik yo'nalishdagi va boshqa salbiy psixologik ta'sir ko'rsatuvchi saytlardan himoya qilishdan iborat. U asosida Google o'zining ba'zi xizmatlarini davlat darajasida filtrlaydi.

Fransiyada jamoatchilik fikrini boshqarish deb nomlanuvchi (Rublic Relation) tizim orqali berilayotgan axborotlarning psixologik jihatini, ularning shaxs ijtimoiylashuviga ta'sirini o'rganuvchi sotsiolog-psixolog shtatlaridagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadi.

Misol uchun, "Reno" zavodining Parijdagi ilmiy loyihalash va modellashtirish markazi (markazda 2,5 ming kishi faoliyat yuritadi) da 35 kishidan iborat sotsiolog va psixologlar guruhi doimiy ish olib boradi.

Shu bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi borasida barcha jarayonlar, jumladan, axborot-psixologik xavfsizlik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini nazorat qilish kabi bir kancha me'yorlarni o'z ichiga olgan Nazorat organi (Commission Nationale del Informatique et des Libertes - CNIL) faoliyati yo'lga kuyilgan.

Ushbu organ axborot tahdidlari va axborotga oid huquqbuzarliklarni o'rganib chiqadi hamda ularga nisbatan tegishli choralar ko'radi. Jazo choralari iqtisodiy sanksiya, jarima va ozodlikdan mahrum etish ko'rinishlarida bo'lishi mumkin

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligi Germaniyada ham yuqori darajada ta'minlangan bo'lib, ko'plab onlayn o'yin turlari va Internet-kazino saytlarini Internetga joylashtirish taqiqlanadi.

Shuningdek, Germaniyaning huquqni himoya qiluvchi organlariga xizmat qiluvchi bloggerlar orqali nodavlat veb-saytlar monitoring qilinishi natijasida shaxs ongiga salbiy ta'sir qiluvchi axborotlar zararsizlantiriladi.

Ular asosan terroristik targ'ibotga e'tibor qaratganligi sababli nodavlat tashkilotlar va xalq tomonidan ijobiy qabul qilingan. 2007-yil yanvar oyida Germaniya Ichki Ishlar Vazirligida islom targ'iboti saytlarining ish jarayonini nazorat qiluvchi maxsus guruh ish boshlagan bo'lib, bugungacha terrorizm targ'iboti bilan shug'ullanuvchi 7000 dan ortiq saytlarning mamlakatdagi faoliyatiga chek qo'yildi. Shuningdek, Germaniyadagi ko'pgina qidiruv tizimlari, xususan, Google, Lycos Europe, MSN Deutschland, AOL Deutschland, Yahoo!, T-Online va T-info "Multimediya xizmati provayderlari uchun o'z-o'zini nazorat" (Voluntary Self-Control for Multimedia Service Providers) shartnomasiga qo'shilgan bo'lib, unga ko'ra, qidiruv tizimlari websaytlarni Germaniya Federal departamenti media resurslar bo'yicha yoshlarga zararli deb topilgan saytlar ro'yxatiga asosan filtrlaydi (Germany's Federal Department for Media Harmful to Young Persons).

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligi tizimini rivojlantirishning Buyuk Britaniya tajribasi ijobiy natijalarga erishgan davlat sifatida ko'pchilik davlatlar tomonidan o'rganiladi. Britaniyada axborot xavfsizligini ta'minlashda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda xususiy tarmoqdan ham faol foydalaniladi.

Davlatda axborot xavfsizligi sohasini tartibga solish va ushbu tarmoq bo'yicha davlat siyosatini yuritishda Security Policy Framework (SPF) asos bo'lib xizmat qiladi. SPF axborot xavfsizligi siyosatiga oid 70 ga yaqin bandlarni o'z ichiga olgan bo'lib, uning to'rtinchi bandi axborot xavfsizligini ta'minlashdagi davlat siyosatining asoslarini tashkil qiladi. Axborot tizimida amalga oshiriladigan barcha

amaliy chora-tadbirlar ushbu bandeda keltirilgan normalalar asosida tashkillashtiriladi.

Shu bilan birga, 2009-yilda "Buyuk Britaniya kiberxavfsizlik Strategiyasi" qabul qilindi va bugungi kunda kibermakondagi xavfsizlik masalalari ushbu hujjat asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

Buyuk Britaniya hukumati tomonidan 2014-yilda Milliy kiberxavfsizlik dasturi (National Cyber Security Programme) qabul qilindi. Mazkur dasturdan ko'zlangan maqsad kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va davlat manfaatlarini himoya qilish bo'lib, uni amalga oshirish uchun 2015-yilga qadar har yili 200 mln funt sterling miqdorida mablag' ajratilayotgan edi (sohaga ajratilayotgan mablag'larning umumiy qiymati 1,1 mlrd. AQSh dollariga teng).

Buyuk Britaniyada axborot-psixologik tahdidlarni aniqlash, va u bilan bog'liq yirik jinoiy ishlarni fosh qilish tizimining samaradorligiga xizmat qiluvchi "Tarmoq monitoringi to'g'risida" qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, Britaniyadagi barcha Internet provayderlari va mobil aloqa operatorlari barcha telefon so'zlashuvlari, elektron yozishmalar va tashrif buyurilgan veb-saytlar haqidagi ma'lumotlarni bir yil davomida saqlanadi va monitoring qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalarini samarali bajarishda va ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatini takomillashtirish uchun rivojlangan davlatlarning tajribalari o'rganildi. Ularning ijobiy tajribasi tahlil qilinib, xavfsizlikning ushbu subsohasini ta'minlashda sohaning me'yoriy-huquqiy ta'minotini rivojlantirish, tashkiliy-texnik ta'minotini rivojlantirish, shaxsning ma'naviy-psixologik salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlarida ta'lim sohasida, OAVlarida, san'at va madaniyat sohasi (shu jumladan, kompyuter o'yinlari, bolalar o'yinchoqlari, kino v.b.)da axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash tizimini rivojlantirishda amalga oshirish ko'zda tutilgan chora-tadbirlar yuzasidan mulohazalar bildirildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasib o'lishi kerak. T.: «O'zbekiston», 2017. – 59 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga bag'ishlangan ma'ruza. 09.01.2018., // www.uza.uz.

3. Konax V. Obespecheniye informatsionnoy bezopasnosti gosudarstva kaksostavlyayushey sistemi natsionalnoy bezopasnosti (primer SSHA). Avtoref ... kand. pol. nauk. – K.: 2005. 131 s.

4. Umarov I. Globallashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlashning dolzarb muammolari. Mag. diss. STIBOM –T.: 2013. 87 b.

5. Xolmuratov G'. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xosligi. Mag. diss. STIBOM T.: 2016. 98 b.